

“O'zkimyosanoat” AJ mutaxassislari Xitoyda sun'iy intellekt bo'yicha xalqaro dasturda qatnashdi

// 19 June 2026 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-mutaxassislari-xitoyda-sun-iy-intellekt-b>
o



“O'zkimyosanoat” AJ mutaxassislari Xitoyning Harbin Institute of Technology (Shenzhen) universitetida tashkil etilgan “**Artificial Intelligence Empowering Sustainable Development**” xalqaro o'quv dasturida ishtirok etdi.



Dastur doirasida ishtirokchilar sun'iy intellekt texnologiyalari, **AI-agentlar**, raqamli transformatsiya hamda **Smart Manufacturing** yo'nalishidagi zamonaviy yondashuvlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirdilar. O'quv jarayonida **BYD, Mindray, Dobot, BGI Group va Fengnong Holdings** kabi Xitoyning yetakchi texnologik kompaniyalariga amaliy tashriflar tashkil etildi. Tashriflar davomida ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, robotlashtirish, katta ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt asosidagi innovatsion yechimlarning amaliy qo'llanilishi o'rganildi.



Mazkur xalqaro dastur "**O'zkimyosanoat**" AJ mutaxassislarining raqamli transformatsiya va sun'iy intellektni ishlab chiqarish hamda boshqaruv jarayonlariga joriy etish bo'yicha ilg'or tajriba almashishiga

xizmat qildi.





